

MILLIY MUMTOZ QO'SHIQLARNI O'RGATISHNING AHAMIYATI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR: MADANIY MEROSNI ASRAB- AVAYLASH YO'LIDA

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Dilmurod Tadjibayev

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Rahim Hasanov

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy mumtoz qo'shiqlarni yosh avlodga o'rgatishning ahamiyati, pedagogik yondashuvlar va madaniy merosni asrab-avaylash masalalari yoritilgan. Qo'shiqlarning tarixiy, estetik va ma'naviy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalar uchun maqom va mumtoz qo'shiqlarni o'rgatishda metodik yondashuvlarning zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: mumtoz qo'shiqlar, milliy musiqa, pedagogika, madaniy meros, estetik tarbiya, maqom, ustoz-shogird, tarixiy asarlar,

Kirish. Milliy musiqa san'atimiz – bu xalqimiz ma'naviyati, o'zlik ifodasi va tarixiy tafakkurining yorqin aksidir. Asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy mumtoz qo'shiqlarimiz faqatgina badiiy-estetik san'at namunasi bo'lib qolmay, balki ulkan pedagogik, tarbiyaviy va falsafiy ahamiyatga ham egadir. Bu musiqiy meros asarlari zamirida xalqimizning qadimiy dunyoqarashi, orzu-umidlari, dard va shodliklari mujassamdir. Ularni yosh avlodga o'rgatish – nafaqat ularni san'at bilan tanishtirish, balki milliy o'zlikni anglash, tarixga hurmat bilan qarash, estetik did va musiqiy tafakkurni shakllantirishdir. Mumtoz musiqa insoniyat madaniyatining bebahohoy boyliklaridan biri bo'lib, unda milliy o'zlik, tarix va madaniy qadriyatlar mujassamdir. Mumtoz qo'shiqlarni yosh avlodga o'rgatish jarayoni nafaqat san'atni o'zlashtirishni, balki madaniy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirishni ham

nazarda tutadi. Talaba yoshlarga ushbu boylikni o'rgatish jarayoni o'ziga xos yondashuv va metodikalarni talab qiladi.

Ko`pchilik musiqaning “ qalb tili” ekanini biladi, lekin bu gapning asl mohiyatini hamma ham anglatavermaydi. Tajribalardan ma`lum bo`lishicha, musiqani tushinish uchun uni har doim ham eshitish shart emas ekan. Musiqa beqiyos qudrat manbaidir. Farobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlaridan musiqaning jumladan, maqom san`atining insonga ta`siri bobida nazariy va amaliy xulosalarga ega bo`lish mumkin. Qadimda musiqadan rux va tana uyg`unligini vujudga keltiruvchi vosita sifatida foydalanilgan. Musiqa hayotning butunlay o`zgacha manzarasini namoyon qilishga qodir.Unda davrning muhim chizgilari aks etadi, ohang va tovushlarning xusussiyatlarini uyg`unlashtirgan holda insonning tuyg'ularini ochib beruvchi bir “ til”ni yaratadi.

Musiqa san`ati masalalariga umumfalsafiy nuqtai-nazardan yondashadigan bo`lsak, avvalo, u ma`naviy-estetik qadriyatdir. Unda moddiy manfaatdorlikdan ko`ra ma`naviylik ko`proq aks etadi. Shuning uchun insonlar chinakam san`at asarlarini qadrlaydi. Zero, san`at inson faoliyatida zarur bo`lgan muhim ehtiyojlarni qondiradi. Bu ayniqsa, - hayot estetik tuyg`u bilan tu`g`ilgan estetik ehtiyojlardandir. Shuni ta`kidlash joizki , Sharq ma`naviy dunyosining uzviy bo`lgan mumtoz musiqaga oid qadim yodgorliklarni o`rganish bugungi kun musiqa estetikasining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Asosiy qism; Milliy mumtoz musiqa asarlari o'zbek xalqining beباوو madaniy merosi bo'lib, ular orqali inson salohiyatini yuksaltirish, ichki dunyo uyg`unligini topish, estetik his-tuyg`ularni shakllantirish mumkin. Maqomlar, marosim musiqalari va folklor qo'shiqlari xalq hayoti, urf-odatlari, tarixiy voqealari bilan chambarchas bog'liq bo`lgan. Ana shu musiqiy namunalarni asl holicha saqlab qolish va ularni yosh avlodga o'rgatish, pedagoglar zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Mumtoz qo'shiqlarni o'qitish jarayoni o'ziga xos metodik yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda asarlarning tarixi, yaratilish sabablari, kuy va matnning ma'nosi haqida chuqur bilimga ega bo'lish

muhim. Masalan, Navoiy g‘azali asosida Doni Zokirov musiqasi bilan yaratilgan “Ey sabo” qo‘sishg‘ini o‘rgatishda, avvalo, talabaga bu asarning yaratilish tarixi, g‘azalda ma’nolar, kuy kompozitsiyasi va har bir musiqa elementining ahamiyati haqida tushuncha berilishi lozim.

Qo‘sinqni mayda bo‘laklarga ajratib, har bir nota, har bir bayt ustida ishlash, uning ma’nosini tushuntirish orqali talabada musiqaga chuqur qiziqish va anglash hosil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchi ovozining imkoniyatlariga mos repertuar tanlash, astasekin murakkab asarlarga o‘tish orqali o‘rgatish samarali bo‘ladi. Ustoz-shogird an’anasi milliy musiqa san’atida muhim o‘rin tutadi. Ustoz tomonidan qo‘sinqni asl holicha, ya’ni tarixiy ohang, ijro uslubi va ma’naviy mazmuni bilan yetkazib berilishi, mumtoz musiqaning umrboqiyligini ta’minlaydi. Qo‘sinqlarni be’ma’ni ijro etish yoki ularni faqat tovushlar ketma-ketligi sifatida qabul qilish, milliy musiqa mohiyatini boy beradi. Shuning uchun pedagog nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki qo‘sinq orqasidagi falsafa va ruhni ham talabaga yetkazmog‘i lozim. O‘zbek xalq an`anaviy musiqasi bo`lmish maqomlar, marosim musiqalari, folklor qoshiqlari o`ziga xos badiiy estetik janr tizimidir. O‘zbek xalq milliy, mumtoz qo‘sinqlarini asl holicha kelajak avlodga yetkazish bizning vazifamiz ekan biz bu borada nimalarga ahamiyat qaratishimiz kerak?. Biz mumtoz qo‘sinqlarimizni yosh avlodga o‘rgatishda qo‘sinqlarni to’g’ri tanlash, talabaning ovoz imkoniyatiga ham e’tibor qaratishimiz lozim. Milliy mumtoz qo‘sinqlarimizning naqadar bebaho ekanligini anlatish biz pedagoglarning vazifamiz ekan, talabalarimiz tushunchasini mumtoz qo‘sinqlarimizning ijro yo’nalishi, matni, ma’nosи va tarihi bilan boyitishimiz kerak deb o’ylayman. Biz biror asarni olar ekanmiz, uni talabaga avvalo tarihini, kelib chiqishini, ma’no mohiyatini, kuyi va matni haqida o’zimiz butun ma’lumotga ega bo’lishimiz va butunligicha qanday bo’lsa shundayligicha yetkazib berishimiz kerak. Milliy qo’siqchilik san’ati ustoz – shogirtlik an’analari asosida o’qitiladi va aynan milliy mumtoz qo‘sinqlarimizning asl holicha qanday yaralgan va qay tarzda ijro etilgan bo’lsa shu holicha o‘rgatish milliy mumtoz qo‘sinqlarimizning umrini uzaytirdi. Milliy mumtoz qo‘sinqlarimizning har birida o’qitish jarayonida chuqur yondashgan holda tahlil qilishimiz va tahlil natijasidan

olingan hulosani talabaga tushunarli qilib o'qitishimiz zarur. Har bir inson nafaqat ijodkor balki oddiy tinglovchilar ham qo'shiqning tub ma'nosiga qarab tinglovchilik qiladi. Musiqa esa so'zga jilo va sayqal berib so'zning ta'sirini yanada kuchaytiradi va tinglovchi ongiga kuy orqali yetib brogan so'zning ta'siri yanada kuchlanadi. Shuning uchun har bir ashulaning tub – tubida joylashgan ma'nosini anglab o'sha ma'noni asl holicha tinglovchiga yetkazib berish bosh vazifamizdur. Biz mumtoz qo'shiqlarimizning bugungi kundagi ijrosidagi kamchiliklarni aynan kuy va so'zning ma'nosini anglamay oddiy so'z va kuy birikmasi sifatida qarayotganimizda deyishimiz mumkin. Biz mumtoz qo'shiqlarimizning nechog'liq sehirga, ma'noga, joziba va ichki tarihiga nazar solsak cheksiz ummonni ko'rishimiz mumkin. Ijodkorlar tomonidan yaratgan milliy faqatgina bizning xalqimizga hos bo'lgan mumtoz qo'shiqlarimizning bizgacham yetib kelganligidan vazifamizni anglab olishimiz qiyin emas. Bizga mumtoz qo'shiqlar bekamu ko'st ustozlar tomonidan yetib kelgan ekan, bizning vazifamiz esa anashu asl hazinani yosh avlodga asl hlicha yetkazib berishdan iborat.

Talabaga biror asarni berar ekanmiz, uni mayda – mayda elementlarga bo'lib, kuyning har bir notasini, qo'shiq matnining har bir bayti, so'zini ma'nolarini singdirishimiz zarur. Talabalarga mumtoz qo'shiqlarni o'rgatishning ahamiyatlaridan madaniy merosni saqlash, mumtoz qo'shiqlar milliy o'zlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ularni o'rgatish orqali yoshlar o'z tarixlari va madaniyatlariga chuqurroq hurmat bilan qarashadi. Mumtoz musiqalar orqali talabalar go'zallikni anglash, musiqiy didni shakllantirish va san'atni qadrlashni o'rganadilar. Mumtoz qo'shiqlar ko'pincha tarixiy voqealar, shaxslar va davrlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ular orqali talabalar tarixiy voqeliklarga ham yaqinlashadilar. Talabalar uchun repertuarni tanlashda mumtoz qo'shiqlarning soddarоq va tushunarli namunalaridan boshlash muhimdir. Bu ularga mumtoz musiqa asoslarini o'zlashtirishni osonlashtiradi va qiziqishni oshiradi.

Xulosa : Milliy mumtoz qo'shiqlarni o'rgatish – bu nafaqat musiqa ta'liming bir qismi, balki kengroq ma'noda madaniy merosni asrab-avaylash, xalq o'zligini anglash, tarixga hurmat bilan qarashning asosiy yo'nalishidir. Qo'shiqlar orqali yoshlar san'atni

qadrlashni, go‘zallikni anglashni, madaniy mulkka mehr bilan qarashni o‘rganadilar. Demak, pedagog sifatida bizning bosh vazifamiz – ushbu bebaho san’at namunalarini asl holicha, mohiyatini saqlagan holda yoshlarga yetkazish, ularni sevishga o‘rgatishdir. Faqat shundagina biz milliy musiqa san’atimizni kelajak avlodlarga boy va haqqoniy holatda meros qilib qoldira olamiz.

ADABIYOTLAR.

1. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006 yil.
2. Akbarova , M. (2022). VOKAL SAN’ATI. AN’ANAVIY HONANDALIK YO’NALISHI BO’LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 122–126.
3. AN’ANAVIY XONANDALIK YO’NALISHI BO’LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR MG Akbarova Oriental Art and Culture, 2023
4. AN’ANAVIY XONANDALIK YO’NALISHI BO’LAJAK MUTAHASISLARIGA BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR. MG Akbarova, BX Xodjakulov - Oriental Art and Culture, 2022